

XULQ-ATVORDAGI OG'ISHLARNING MAVJUDLIGI VA DARAJASINI ANIQLASH USULLARI

Ergashev Jo'rabek Xalilovich

Aniq va ijtimoiy fanlar kafedrası "Ijtimoiy fanlar" kafedrası stajyor o'qituvchisi.

Tel (93) 112-28-98

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21057236>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlik davridagi xulq-atvor og'ishlari (deviatsiya) va psixopatik buzilishlarning namoyon bo'lish xususiyatlari, darajalari hamda ularni aniqlash usullari tahlil qilingan. Muallif o'smirlar xulqidagi og'irliklarni o'rganishda mediko-biologik, psixologik, oilaviy va pedagogik omillarni majmuali yondashuv asosida ko'rib chiqadi. V.V. Kovalevning ko'p qirrali tasnifiga tayangan holda, psixopatiya buzilishlarining klinik-nozologik, sindromal, patoxarakterologik va ijtimoiy adaptatsiya qirralari tizimlashtirilgan. Shuningdek, amaliy psixologik holatlardan (Mijoz K. va Mijoz R.) misollar keltirilib, o'smirlarda ijtimoiy dezadaptatsiya va delikvent hamda suitsidal xulq-atvorning shakllanish sabablari ko'rsatilgan, ularni keltirib chiqaruvchi tashqi ijtimoiy omillar sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, xulq-atvor og'ishi (deviatsiya), psixopatiya, tranzitor buzilishlar, ijtimoiy adaptatsiya, ijtimoiy dezadaptatsiya, patoxarakterologik reaksiya, delikvent xulq-atvor, suitsidal xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi.

Bizningcha, o'smirlar xulqi og'irligini analiz qilishda mediko-psixiatrik va ijtimoiy psixologik yondashish va xulqi og'irlikning mediko-biologik, psixologik, oilaviy tarbiya va maktab ta'limi bilan bog'liq sabablarini aniqlash dolzarb masaladir.

O'smirlik yoshiga xos tranzitor buzilishlardan psixopatiya buzilishlari dinamik kechishiga ko'ra farqlanadi. Unga affektiv va xarakterologik reaksiyalar ayrim dismorfobik ko'rinishlarini kiritish mumkin.¹

Ko'pincha ekzogen (turli shikastlanishlar, somatik kasalliklar va boshqalar) xususiyatli kasalliklar ham tranzitor buzilishlarni chaqiradi. Agarda psixopat ko'rinishlari negizi tranzitor o'zgarishlar asosiga ega bulmasa, ularning shakllanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin.

Bizningcha, o'smirlardagi adaptatsiyani aniqlash uchun bir qator omillarni xisobga olish kerak. Uni belgilovchi tasniflar sifatida o'smirning o'quv (ish) faoliyatidagi ijtimoiy mavkqei, do'stlari, atrofidagi insonlar va oila a'zolari bilan shaxslararo aloqalari xizmat qiladi.²

Yuqorida qayd etilgan barcha qirralarning ijobiy xal qilinishi ijtimoiy adaptatsiyaning barqarorligi xususida fikr yuritish imkonini beradi. Klassifikatsiyada parsial adaptatsiya termini kiritilgan bo'lib, uni ko'rsatilgan jabhalarning ijobiy xal qilinishidagi cheklangan ta'siri ostida dezadaptatsiya sodir buluvchi holatni aks ettirish uchun ishlatdik. Umuman olganda, belgilangan jabxaning biror bandining ijobiy xal qilinmasligi ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi.

O'smirlardagi psixopatiya buzilishlarining ko'pqirrali klassifikatsiyasi:

I. Klinik-nozologik qirra.

1. O'tkir affektiv reaksiyalar.

2. Patoxarakterologik reaksiyalar.

3. O'smir shaxsi shakllanishidagi psixogen patologiya:

¹ Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: П.ф.д дисс. –Т.: ТДПУ, 2016. –314 б.

² Холодная М.А. Психология понятийного мышления: от концептуальных структур к понятийным способностям. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2012. – 288 с.

- a) o'zmi shaxsining patoxarakterologik shakllanishi;
- b) jismoniy defekt (nuqson) va surunkali kasallik oqibatida nogironlikka olib keluvchi kasallik tiplari sababi tufayli shaxsda patologik holatlarning shakllanishi.
4. Psixopatiya: a) konstitutsional; b) organik.
5. Ekzogen-organik (turli shikastlar, tutqanoq, neyroinfeksiyalar va boshqalar) genezisga asoslangan psixopatiya ko'rinishidagi buzilishlar.
6. Psixotik genezisga asoslangan psixopatiya ko'rinishidagi buzilishlar (shizofreniya, maniakal-depressiv sindrom, endoreaktiv psixoz):
 - a) psixopatiya ko'rinishidagi endogen psixozlar debyuti;
 - b) psixopatiya ko'rinishidagi suet kechuvchi shizofreniya; v) affektiv psixozlardagi psixopat ko'rinishning ekvivalentlari (depressiyaning delikvent ekvivalentlari, gipomaniakal holatlar);
 - g) endogen psixozlarda psixopatiya ko'rinishidagi remissiya tipi;
 - d) psixopat rezidual holatlarning psixopatiya ko'rinishidagi tiplari.
- II. Sindromal qirra
 1. Affektiv qo'zg'aluvchanlik sindromi.
 2. Giperdinamik sindrom.
 3. Demonstrativ xulq-atvor sindromi.
 4. Suitsidal xulq-atvor sindromi.
 5. Toksikoman va alkogol xulq-atvor sindromi.
 6. Jinsiy devyatsiyani uyg'otish sindromi.
 7. O'ta qimmatli qiziqishlar va mayllar sindromi.
 8. Psixik infantilizm sindromi.
 9. Depressiyaning ekvivalenti sindromi.
 10. Gipomaniakal xolatning ekvivalenti sindromi.
 11. Dismorfofobik va dismorfoman sindromlar.
 12. Ortib boruvchi shizoid sindromi.
 13. Metafizik intoksikatsiya sindromi.
 14. Epileptoid sindromi.
- III. Psixopatik buzilishlar darajasi
 1. Psixopatik.
 2. Nopsixopatik.
- IV. Patoxarakterologik qirra
 1. Gipertim.
 2. Sikloid.
 3. Labil.
 4. Asteno-nevrotik.
 5. Senzetiv.
 6. Psixoastenik.
 7. Shizoid.
 8. Epileptoid.
 9. Isteroid.
 10. Beqaror.
- V. Psixopat buzilishlar dinamikasining qirrasi
 1. Tranzitor buzilishlar.

2. Boshlang'ich ko'rinishlar.
3. Strukturalashtirish.
4. Shakllanishning to'xtashi.
5. Adaptiv o'tkazish (transformatsiya).
6. Silliqlanish (depsixotizatsiya jarayon sifatida).
7. Qisman yoki to'liq depsixopatizatsiya (xotima sifatida).
8. Amaliy sog'ayish.

VI. Ijtimoiy adaptatsiya qirrasi

1. Barqaror adaptatsiya.
2. Parsial adaptatsiya.
3. Beqaror adaptatsiya.
4. Dezadaptatsiya

O'ylaymizki, o'smirlar muammosi bilan shug'ullanuvchilar uchun ularning tarbiyasidagi «qiyin»lik omillarini doimiy tarzda qayd qilib borish ular bilan amalga oshiriladigan amaliy faoliyatni yengillashtiradi. O'smirlik davriga xos buzilishlarning dinamikasini aniqlash esa turli masalalarni yechish, jumladan, ekspert xulosasini tuzish, ular bilan olib boriladigan reabilitatsion chora-tadbirlarning individual rejasini tuzishga imkon beradi.³

Qayd etilgan klassifikatsiyadan amaliyotda foydalanilganda, har bir mijozga mos keluvchi asosiy tasniflarni nazarga olib, diagnoz qo'yish kerak. Amaliy faoliyatdan misollar keltiramiz.

Mijoz K. 15 yosh. Ilk bolalik davridanoq, uning psixomotor rivojlanishi o'z yoshiga mos bo'lgan. Lekin yolg'izlikka intilishi bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan. Umuman mutolaa qilishni yaxshi ko'rgan, ammo o'z yoshiga xos bo'lgan kitoblar o'rnini "kattalar uchun" mo'ljallangan kitoblar egallagan. Maktabda yaxshi o'qigan, intizomli o'quvchi bo'lgan.⁴

14 yoshga to'lgach, u nimagadir juda urishqoq bo'lib qolgan, har xil huquqbuzarlik harakatlarini sodir etgan. Ota-onasining pand-nasixatlarini yoqtirmay, ular bilan gaplashmay ham qo'yan. Fan o'qituvchilariga rasmiy javob qaytargan, xolos.

Bir necha bor uydan qochishga uringan. Qayd etilgan asosiy tasniflarni xisobga olgan holda, psixolog: delikvent xulq-atvor sindromi, xarakter aksentuatsiyasining premorbid shizoid tipi, ijtimoiy dezadaptatsiya, deb diagnoz quyishi mumkin.

Mijoz R. 14 yosh. Jismoniy va psixik jixatdan o'z yoshiga mos rivojlangan, lekin uning harakatlarida epchillik yetishmas edi. Bolalar bog'chasiga bormaslik uchun turli darajadagi nevrotik harakatlarni amalga oshirar edi. O'z ota-onasiga juda bog'lanib qolgan, nima uchundir yoshlari katta bo'lgan sari ulardan ayrilib qolishdan qo'rqr edi.

Onasining og'irroq dardga chalinishi uning xulq-atvoridagi turli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Agar onamga biror narsa bo'lsa, men ham yashamayman, degan fikrni bildirar boshlagan. Bundan xabar topgan onasi u bilan dildan suxbatlashgach, u onasiga endi xech kachon uni xafa qilmaslikka qat'iy so'z bergan. Biroq, imtixonidan "2" baho olgach, o'zini o'ldirish uchun uringan. Xayriyatki, otasi uni o'z vaqtida to'xtatib qolgan. Diagnoz: beqaror ijtimoiy dezadaptatsiya, ilk suitsidal xulq-atvorning nopsixotik tipi, patoxarakterologik reaksiya.⁵

³ Умаров Б.М. Очик ахборот тизимларида ахборот-психологик хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.: 2013. – 223 б.

⁴ Т.И. Колесникова Психологический мир личности и его безопасность. -М.: Издательство ВЛАДОС-ПРЕСС, 2001.–176 с.

⁵ Хорни К. Невротическая личность нашего времени. Самоанализ / пер. с англ. В.В.Старовойтова; под общ. ред. Г.В.Бурменской. –М.: Прогресс, 2001. –С.98-102.

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga hos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakatning ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizimlari mavjud. O'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la xisobga olgan xolda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslar aro munosabatta anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi.⁶

Ahloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruxiy dunyosiga salbiy ta'sir ro'rsatadi.

Hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtaiy nazarining shakllanmaganligi, xissiyotlilikgi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il- qizlarga aloxida e'tibor berish zarur. O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

1.Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot va ishtimoiy-iqtisodiy shart- sharoitlarning o'zgarayotgani;

2.Ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilganligi;

3.O'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;

4.O'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

5.O'smirlarning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

6.Oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;

7.O'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'z-o'zini boshqarish, anglash, baholsh va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani. O'smirlarda kutilmagan holatlar va ma'lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi, fe'l –atvorda ayrim illatlar paydo bo'ladi.

Goho o'smirlar orasida ahloqan tubanlashuv xollari ro'y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, nopok gurux va to'dalardan xalos etish zarur. Ijtimoiy xayotda yaramas odatlarni keltirib chiqaruvchi anchagina manbalar bor:

1-dan, kino zallari va televedeniya orqali o'smirlarga to'g'ri kelmaydigan filmlarni ko'rishga ruxsat qilinishi;

2-dan, jamoat joylarida va ko'cha-ko'ya kattalarning nojoiz qiliqlar ko'rsatishlari;

3-dan, ta'limda biologik o'sish to'g'risida yetarli bilimlar berilmasligi;

4-dan, vrachlarning bu soxada keng ko'lamda ish olib bormasligi;

5-dan, ota-onalarda fiziologik va psixologik bilimlar yetishmasligi;

6-dan o'smir bolalar va qizlarga mo'ljallangan materiallarning kamligi va xokazo. Bunday salbiy odatlarni keltirib chiqaruvchi omillar xayotda xulqi og'ir o'smirlarni yuzaga keltiradi.⁷

O'smirlik davriga xos "og'ish"larning xilma-xilligi uni klassifikatsiya qilish masalasi dolzarbligidan dalolat beradi. Mazkur muammo bilan shug'ullangan olimlarning tadqiqot ishlari qancha bo'lsa, uni klassifikatsiyalashga nisbatan urinishlar ham shuncha miqdordadir.

⁶ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Иймон. -Т.:Шарк нашриёти. 2008. 18-19 бетлар.

⁷ Холодная М.А. Психология понятийного мышления: от концептуальных структур к понятийным способностям. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2012. – 288 с.

Biz o'smirlilik davriga xos "og'ish"larni klassifikatsiya qilishda V.V. Kovalev tomonidan taklif qilingan ko'p qirrali tasnifga yondashishni "og'ish"larni anglashning muayyan tizimliligi bois ham o'rinli, deb tan oldik.⁸

Xulosa. O'smirlardagi xulq-atvor og'ishlarini faqat bitta omil bilan tushuntirib bo'lmaydi; ularni tahlil qilishda tibbiy-psixiatrik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni birlashtirish, ya'ni biologik, oilaviy va maktab muhitini birgalikda o'rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: П.ф.д дисс. – Т.: ТДПУ, 2016. –314 б.
2. Холодная М.А. Психология понятийного мышления: от концептуальных структур к понятийным способностям. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2012. – 288 с.
3. Умаров Б.М. Очик ахборот тизимларида ахборот-психологик хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.: 2013. – 223 б.
4. Т.И. Колесникова Психологический мир личности и его безопасность. -М.: Издательство ВЛАДОС-ПРЕСС, 2001.–176 с.
5. Хорни К. Невротическая личность нашего времени. Самоанализ / пер. с англ. В.В.Старовойтова; под общ. ред. Г.В.Бурменской. –М.: Прогресс, 2001. –С.98-102.
6. Холодная М.А. Психология понятийного мышления: от концептуальных структур к понятийным способностям. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2012. – 288 с.
7. Фомина А.Н. Жизнестойкость личности. Монография. –М.: ПГУ «Прометей», 2012. ISBN 978-5-4263-0110-8

⁸ Фомина А.Н. Жизнестойкость личности. Монография. –М.: ПГУ «Прометей», 2012. ISBN 978-5-4263-0110-8